

Mavzu. Ta'lim jarayoniga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interfaol metodlarni qo'llash

*Simoliy – garbiy harbiy okrug,
serjantlar tayyorlash maktabi
“Qo'shnlarning kundalik faoliyatini
boshqarish” sikl boshlig'i
podpolkovnik R.Mirqodirov*

Bugungi kunda butun dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng qo'lamda rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlatning iqtisodiy tizimini yuritishning asosiy kuchi bo'lib: telekommunikatsiya, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish kabi sohalarda yangi ish joylarni tashkil qiladi, hamda yangi axborot-kommunikatsiya atrofida paydo bo'layotgan ta'lim va o'qitish kabi xizmatlar sohasiga yangi dasturiy ta'minotni yaratmoqda.

Ta'lim jarayoniga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish talabalar va o'qituvchilarni intellektual rivojlantirish hamda jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishning muhim vazifasidir. Shu bois ta'lim sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning kirib kelishi yangi o'zgarishlardan foydalanishni taqazo etadi. Ta'lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini kiritish zarurdir. Zamonaviy jamiyat axborot uzatish hajmi va tezligi jihatidan chegaralanmagan butun jahon axborot tarmog'idan faol foydalanishi bilan harakatlanadi. Multimediya va Internet texnologiyalarining paydo bo'lishi va keng tarqalishi axborot texnologiyalarni muloqot, tarbiya, jahon hamjamiyatiga kirib borish vositasida ishlatish imkonini beradi.


Ta'lim jarayonida, dars mashg'ulotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ishlatilishi o'qishga bo'lgan talabalarning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Kompyuter axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan birgalikda ta'lim sohasida, kursantlarning o'qish va ta'lim olishiga yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar


O'quv jarayonida o'qituvchi rahbarlik vazifasini bajaradi. Hamma mashg'ulot jarayoni o'qituvchi tomonidan oldindan puxta o'ylansa va yaxshi rejalashtirilsagina bilim oluvchi mustaqil ishlay olishlari va o'zlashtirishlari mumkin.

Pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba - muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz. Har bir dars, mavzu o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik

texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.



Pedagogik jarayon



Pedagogic jarayon

Kursantlarning o'zlashtirish darajasiga o'qitish metodlarining ta'sir darajasi:

Ma'ruza - eshitganimizning 5%.

O'qish - o'qiganimizning 10%.

Videosul, namoyish - ko'rganimizning 20%.


Tajribani namoyish qilish - ko'rgan va eshitganimizning 30%.

Bahs-munozara - muhokama qilganimizning 40%.

Mashqlar - o'qigan, yozgan, gapirganimizning 50%.

Ishbop o'yin, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash - mustaqil o'qiganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, himoya va namoyish qilganimizning 75%.

Yoʻnaltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni oʻqitish, mustaqil oʻrganganimizning, tahlil va muhokama qilganimizning, boshqalarni oʻqitgan narsalarimizning 90%.



TA'LIM JARAYONIDA AKT JORIY ETISHDAN MAQSAD: TA'LIM SIFATINI OSHIRISH



Kompyuterli oʻqitish texnologiyalari

Kompyuter texnologiyalari oʻqituvchini mashaqqatli muammolardan ozod qilish bilan birga, uni axborot berishdan oʻquvchilar bilan birga ijodiy munozara qilish, birgalikda tadqiqot qilish, oʻqitishning yangi shakllariga, bir soʻz bilan aytganda koʻproq ijodiy ishga oʻtishga imkon beradi.

Kompyuter bizni quyidagilar bilan taʼminlaydi:

- interfaollik
- multimedia

kommunikativlik

unumdorlik

O'quv jarayonida bir vaqtning o'zida pedagog va kompyuterning ishtiroki ta'lim sifatini ancha oshiradi. Taklif qilingan metodikadan foydalanish dars berish jarayonini faollashtiradi, o'quvchining o'qitilayotgan fanga qiziqishlarini orttiradi va o'quv materialini chuqur o'zlashtirishga imkon beradi. Kompyuter va pedagog hamkorligi bir tomondan turli toifadagi talabalarga o'quv materialini yaxshiroq tushunib olishlariga yordam beradi. Boshqa tomondan u o'qituvchi malakasi va tayyorgarlik darajasiga ancha yuqori talablar qo'yadi.

Pedagogik texnologiya


Pedagogik texnologiya - bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan ta'lim samaradorligini oshirish, o'qituvchining texnologik vositalari, kompyuter, masofali o'qitish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'rganuvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'qituvchi esa ularning faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Modulli o'qitish texnologiyasi

O'qituvchi tomonidan fanning qator mavzularini birlashtiruvchi bo'limlarga (o'quv elementlarga) ajratilishi bo'lib, odatda fan bir necha bo'laklardan iborat bo'ladi va eng oddiy hollarda darslikning boblariga mos tushishi mumkin. Har bir ta'lim oluvchi har qaysi o'quv elementi moduli yuzasidan izchil yo'l-yo'riq oladi. Unda modulning maqsadlari ko'rsatiladi. O'quv ishlarining ma'lum turlari tavsiya qilinadi. Modul bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari keltiriladi. Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv faoliyati turlari erkin tanlanadi va modul bo'yicha alohida sinov o'tkaziladi. Modulli o'qitish ta'lim berishning istiqbolli shakllaridan biri bo'lib, u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Videokonferensiya va uni o'quv jarayonida qo'llash

Videokonferensiya - bu shunday kompyuter texnologiyasiki, u orqali foydalanuvchi shaxslar bir-birlarini real vaqtda ko'radi, eshitadi va ma'lumotlar bilan almashadi.



Videokonferensiya o'tkazish uchun asosan ikkita shartni bajarish lozim:

videokonferensiyaning amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompyuter (texnik) qurilmalari;

videokonferensiyaning o'tkazish talabiga javob beruvchi aloqa kanallaridan foydalangan holda, muloqotga chiquvchilar bilan bog'lanish.

Videokonferensiya va uni o'quv jarayonida qo'llash

Masofadan videokonferensiya tizimini qo'llash yordamida interaktiv o'quv darslarini olib borish imkoniyati yaratildi, ya'ni interfaol usulda ma'ruzalarni o'qish, seminarlar tashkil etish, savollarga javoblar va hokazo.

Interfaol forma – masofadan videokonferensiya o'qitish tizimi, masofadan turib Internet yoki lokal tarmoq orqali o'qitishdan farq qiladi, xuddi radiodan va televideniya bilan ma'ruza o'qish kabi.

Masofadan videokonferensiya tizimi – matnli axborotlar almashish, fayllar almashish imkonini beradi. Tashqi elektron doska qo'llashda o'qituvchi doskaga yozadi va bu videokonferensialoqa ko'magida boshqa auditoriya tinglovchilariga ko'rsatiladi.

Elektron doskadan masofadan o'qitish tizimi foydalanuvchilari bir xil foydalanishlari mumkin, ya'ni bir doskaga chizilgan rasm boshqa auditoriyadagi doskalarda ko'rsatiladi. Dars olib borish jarayonida videokamera avtomat tarzda ma'ruza o'qiyotgan professor, talaba yoki savol beruvchi tomonga buriladi.

Masofaviy o'qitish – o'zaro ma'lum bir masofada Internet texnologiya yoki boshqa interaktiv usullar va barcha o'quv jarayonlari komponentlari – maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakllar va o'qitish usullariga asoslangan talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat.

Internet tarmog'ida o'qitish

Internet hozirgi kunda axborot texnologiyalari tizimining ajralmas qismi bo'lib, undagi asosiy bo'g'in bu o'zaro bir-biri bilan bog'langan kompyuterlar. Kompyuterlar aloqa vositalaridan farqli o'laroq, foydalanuvchiga ma'lumotni ko'rish, o'qish va eshitish asosida ma'lumotdan unumli foydalanishga imkon yaratadi. Bundan tashqari unda ma'lumotni uzatish, qabul qilish tezligi o'ta yuqori bo'ladi. Oxirgi yigirma yillikda ta'lim tizimi ishida yuzaga kelgan vaziyatda, zamonaviy axborot va kommunikatsiya

texnologiyalarini takomillashtirish va zamonaviylashtirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, loyiha, o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.